

## An'anaviy Etnosport O'Yinlarining Etno Va Ekoturizmini Rivojlantirishdagi O'Rni

**Mavlyanov Baxrom Sangirovich,**

Katta o'qituvchi JDFU Ijtimoiy-gumanitar fanlarda  
masofaviy ta'lim kafedrası

### ABSTRACT

Ushbu maqolada xalq o'yinlarining etnosport sifatida qadimgi davrlardan Markaziy Osiyo xalqlarining ko'plab urf-odat, marosimlar, to'y va ommaviy bayram tomoshalarning uzviy qismi bo'lganligi va hozirgacha ularning ko'pgina qismlari saqlanib qolganligi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, ot va tuya bilan bog'liq chavgon, ko'pkari, ot poyga, tuya poyga kabi xalq o'yinlari yosh avlodda abjirlik, chaqqonlik, ekstremal vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### ARTICLE INFO

**Received:** 14<sup>th</sup> December 2023

**Revised:** 10<sup>th</sup> January 2024

**Accepted:** 20<sup>th</sup> February 2024

### KEY WORDS:

*etnosport, ekoturizm, ko'pkari, uloq, chavgon, chavandoz, bakovul, xalq o'yinlari, marosimlar, arxeologik, etnografik, folklorshunoslik, tarixiy manbalar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy faollik.*

**Аннотация:** В данной статье содержится важная информация о том, что народные игры как этносport с древнейших времен являлись неотъемлемой частью многих традиций, обрядов, свадеб и народных гуляний народов Средней Азии, а многие их части сохранились до наших дней. сейчас дано. В частности, народные игры, связанные с лошадьми и верблюдами, такие как чавгон, купкари, скачки, верблюжья бега, являются важным фактором формирования у юношей навыков храбрости, ловкости, быстрого и правильного принятия решений в экстремальных ситуациях.

**Abstract:** This article provides important information about the fact that folk games as an ethnosport have been an integral part of many traditions, ceremonies, weddings and public celebrations of the peoples of Central Asia since ancient times, and many of their parts have been preserved until now. In particular, folk games related to horses and camels, such as chavgon, kopkari, horse racing, camel racing, are an important factor in the formation of the skills of bravery, agility, quick and correct decision-making in extreme situations in the young generation.

**Ключевые слова:** этносport, экотуризм, купкари, козел, чавгон, всадник, баковул, народные игры, обряды, археологические, этнографические, фольклорные исследования, исторические источники, физическая культура, двигательная активность.

**Key words:** ethnosport, ecotourism, kopkari, ulok, chavgon, rider, bakovul, folk games, rituals, archaeological, ethnographic, folklore studies, historical sources, physical training, physical activity.

Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini (etnosport) targ'ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o'smirlarni ularga keng jalb qilish maqsadida, shuningdek Prezidentning 17.06.2021 yildagi **PQ-5149-son** qaroriga muvofiq quyidagilar tasdiqlandi:

- Etnosport turlarini 2025 yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi;
- Etnosport turlarini 2025 yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturini 2022-2023 yillarda amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi».

Prezidentning 11.04.2022 yildagi «Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi **PQ-201-son** qarori bilan 2023 yil 1 martdan boshlab milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy qilinadigan bo'ldi.

2023 yil 1 martdan boshlab etnosport turlari bo'yicha musobaqalar har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladi. Xususan, Toshkent shahrida har yili etnosport turlari bo'yicha «Uzbekistan Ethno Games» respublika festivali, Xiva shahrida har ikki yilda bir marotaba Xalqaro etnosport festivali tashkil qilinadi. Bunda «Ichan qal'a» majmuasida festivalning ochilish va yopilish marosimlari o'tkaziladi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, xalq o'yinlari etnosport sifatida qadimgi davrlardan Markaziy Osiyo xalqlarining ko'plab urf-odat, marosimlar, to'y va ommaviy bayram tomoshalarning uzviy qismi bo'lgan. Ayniqsa, ot va tuya bilan bog'liq chavgon, ko'pkari, ot poyga, tuya poyga kabi xalq o'yinlari yosh avlodda abjirlik, chaqqonlik, ekstremal vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish qo'nikmalarini shakllantirgan.

Xalq o'yinlari haqidagi muhim ma'lumotlar tarixiy qo'lyozma manbalar, arxeologik, etnografik, folklorshunoslik materiallarida aks etgan. Bugungi kunda xalq o'yinlarini mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan tahlil etib, tarixiy manbalar, etnografik materiallar asosida qayta tiklanishi milliy an'analarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ayniqsa, yoshlar, o'rta yoshlilar qatnashishi mumkin bo'lgan ot va tuya bilan bog'liq poyga, chavandozlik mashqlari, chavgon kabi ommaviy xalq o'yinlarini tarixiy manbalar asosida tiklab, ularni sahro o'yinlari negizida qayta tashkil etish, ommaviy etnosportni va aholining jismoniy faolliligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'sha davrdagi ko'pgina o'yinlar bolalarning hozirgi davrdagi o'yinlarini eslatadi. Masalan, «O'tish-o'tish» deb atalgan o'yin «Kesak kuydi», «Darra soldi», «Musht ketdi» o'yinlariga o'xshab ketadi. Amudaryo va Sirdaryo sohillarida, Orol etaklarida, shuningdek, yaqin joylardagi soylar, anhorlar, hovuzlar va ko'llar bo'ylarida bolalarning «Muguz-muguz» nomli qadimiy o'yini o'ynalgan.

Abu Ali ibn Sino nafaqat mashhur shifokor, faylasuf, shoirgina bo'lib qolmasdan, balki xalq o'yinlariga doir g'oyat rang-barang nodir meros qoldirgan allomadir. U xalq o'yinlari haqidafikr yuritar ekan, ayniqsa badantarbiyaning kishi uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi. Ibn Sino inson organizmini sog'lomlashtirish va kasallikni davolash nuqtai nazaridan qarab, xalq o'yinlaridan biri bo'lgan badantarbiyani beshta asosiy qismga ajratadi. Jumladan, tez harakatlar, nozik va yengil harakatlar, kuchliroq harakatlar, o'rta kuchli harakatlar, gavda uchun maxsus harakatlar kabi turlarga bo'lgan va ular asosan, milliy xalq o'yinlari yoki ularning ayrim unsurlari orqali amalga oshirilgan. Ayniqsa, otda yoki tuyada yurish, sayr etish, ot poyga, chavgon o'yini kabi musobaqa turidagi o'yinlarning badantarbiya uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bergan. Olim o'yin turlari va unsurlarini shunchaki sanab o'tmasdan, balki xalq donishmandligiasosida o'zining kuchli bilimi bilan ularni boyitib, inson kamoloti uchun qaysi tarzda foydali ekanligini tushuntiradi

Masalan ko'pkari o'yinini oladigan bo'lsak, ko'pkari hamma joyda deyarli bir xil kechadi. Uloqni maydondan olib chiqish g'oliblik sanaladi. Lekin bu xil talato'pdan uloqni ajratib olishning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun yaxshi ot, bilak kuchi va ulkan tajriba kerak. Kuching bo'la turib, oting bundayroq bo'lsa yoxud oting zo'r bo'la turib, o'zingda chapdastlik yetishmasa, yaxshisi bunday holatda maydonga tushmagan ma'qul. Bu maydonda yigitning g'ururi sinaladi. Ota-bobolarimizning mardu-maydonlik, jasorat, epchillik kabi xislatlarini o'zida ifoda etuvchi qadimiy va hamisha navqiron ko'pkari musobaqalari yoshlarimizda jasurlik, botirlik, uddaburonlik, chaqqonlik, zukkolik, fahm-farosatlilik, aql idrok fazilatlarini kamol toptirishda «hayot maktabi» vazifasini o'taydi. Zero, ko'pkari chinakam oriyatli, g'ururli, shijoatli o'zbek yigitlarining mardonalik timsolidir.

Ko'pkari Markaziy Osiyoning ot o'yini sanaladi. Ko'pkarining o'ziga xos sehri shu qadar qudratliki, uning daragini eshitgan chavandozlar yuzlab chaqirim yo'lni ortda qoldirib bo'lsa-da, tezroq manzilga yetib borishga harakat qilishadi. Ko'pkari o'yini boshlanishidan oldin bakovul tomonidan maydonga uloq tashlanadi. Uloqni maydonga tashlagan bakovul butun ko'pkari davomida o'yinga hakamlilik qiladi. Beriladigan sovrinlar faqat uning izmi bilangina egasiga topshiriladi. Uloqdagi halollik va g'irromlikni yolg'iz ugina ajrim qilish huquqiga ega. Biroq uning hakamlilik ishi hamisha oqsoqollar kuzatuv ostida bo'ladi.

Ko'pkari soatlab, ba'zan kunlab davom etishi mumkin. Uloqda otbozlar otini, chavandozlar esa o'zini sinovdan o'tkazadi. Ular uloqdan uloqqa o'z xato va kamchiliklarini tuzatib, tajribalarini oshira boradilar. Har bellashuvda yangi-yangi chavandozlar hamda uloqchi otlar kashf etila boradi. Eng muhimi, har bir ko'pkari xalq xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Ko'pkari ajdodlarimizning qadimiy va ommaviy tomoshalaridan biri. Musobaqa maydonida bedovlarning qahr bilan kishnashi, chavandozlarning vajohati, tomoshabinlarning yurak hovuchlab o'yinni kuzatishi, qariyalarning esonlik-omonlik tilab, fotihaga qo'l ko'tarishi, bakovullarning ovozi, bilimdonligi, voqealar rivojini o'z vaqtida ko'ra olishi – hamma-hammasi ko'pkarini chinakamiga san'at darajasiga ko'taradi, yuksak badiiy saviyadagi qiziqarli maydon tomoshasiga aylanishini ta'minlaydi. To'da-to'da otlarning pishqirishi, qamchining havoda aylanishi, "ha, halolla, azamat" deb hakamlarning og'iz yirib baqirishi, chor-atrofdagi son-sanoqsiz tomoshabinlarning olazarak ko'zlari bilan g'olib chavandozni qidirishi chavandozlarga ruh, maydonga ko'tarinkilik, vujudlarga his-hayajon, jo'shqinlik va o'zgacha tarovat bag'ishlaydi. Qamchini etik qo'njiga tiqib olgan, yugan uchini egar boshiga ilib uloqqa uzalgan chavandozni hech kim shaxdidan qaytara olmaydi. Chunki, tanti, jo'mard bahodirlar o'z oriyatini elning g'ururiga bag'ishlaydilar. Otlari ham o'zlariga yarasha malakaga ega, o'ta chopqir, baquvvat, maydonga kirganda to'dani yorib o'tadigan, egasiga quloq soladigan, uning tilini tushunadigan, hiylalarini tezda anglashga qodir. Shuning uchun ham, uloqda chavandoz va ot bir-biriga monand ravishda bir maqsad sari harakat qilib, xalq olqishiga sazovor bo'ladi. Ko'pkarining mo'jizaviy qudrati ham ana shunda.

Ko'pkari o'yinlari vatanimizdan tashqari Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Afg'oniston, Pokiston, Mo'g'uliston va qisman Ozarbayjonda ham uyushtirilib kelinadi. Ular orasida eng ommalashgan ko'pkari (uloq) o'yini biz o'zbeklarda "Ko'pkari", "Uloq", "Ko'kbo'ri" deyilsa, qirg'izlarda "Kok-pari", forsiy tilda so'zlashuvchi qavmlarda "Bo'zkashi" (tortishish o'yini), rus xalqlarida esa "Kozlodranie" deb yuritiladi. Ko'pkari O'zbekistonda ko'pincha xalq sayllari, bayramlar va to'ylar munosabati bilan tantananing oxirgi kuni uyushtiriladi. Chavandozlar ko'pkari o'tkaziladigan qishloq tomon bir necha kun avval yo'lga tushadilar. Mehmon chavandozlar qo'nim topgan xonadonlarda tunning yarmigacha ko'pkari haqidagi ajoyib-g'aroyib afsonalar, latifalar, hazil- mutoyibalar avjiga chiqadi, musobaqada ishlatiladigan qoidalar va yangi atamalar haqida qizg'in bahslar bo'ladi. Olamdan o'tgan marhum ustoz chavandozlar esga olinadi, kuchli va tajribali chavandozlarning tantiligi, jo'mardligi maqtaladi, yaxshi otlarning hislatlariga tasannolar aytiladi. Mahalliy baxshilar ijrosida dostonlardan parchalar va termalar tinglanadi. Bu kabi suhbatlar maydonda har doim kamtarin, vazmin va asosiysi halol bo'lishga undaydi.

Shu kuni otlarga ham alohida e'tibor beriladi. Mo'ljalardan ortiq suv yoki yem berilmaydi, yomon ko'zlardan asraladi. Hech qachon qamchi bilan otning boshiga urilmaydi. Har bir chavandozning maxsus tayyorlangan kiyimlari: boshni qamchi yoki boshqa xavfli tasodifiy zarbalardan saqlaydigan telpagi, ustida po'stini, shimi, oyog'ida etigi, qo'lida qamchisi bo'ladi.

To'yning oxirgi kuni xalqqa osh berilgandan so'ng chavandozlar ko'pkari o'tkaziladigan maydon tomon yo'l oladilar. Tomoshabinlar hammadan oldin bu yerga yetib kelib, o'zlariga qulay tepaliklardan joy olishadi va maydondagi o'z chavandozlarini har tomonlama qo'llab- quvvatlab, uloq uchun kurashda g'alabaga undaydilar. Toyponga hamma yig'ilgach, otlarni qizdirib olish uchun "qoqma" o'yini o'tkaziladi.. Asosan yosh chavandozlar ishtirok etadigan bu ko'hna udumda qatnashchilar soniga qarab maydonga navbati bilan ikkita yoki uchta uloq tashlanadi. Yoshlar uni to'dadan ajratib olib chiqish uchun o'zlarining nimaga qodir ekanliklarini sinab ko'radilar. Ushbu vazifani uddalay olganlarga uloq sovrin sifatida beriladi. Bunday musobaqalar yoshlarning kelajakda mard, epchil bo'lib voyaga yetishlarida, ayniqsa, o'spirin chavandozlar uchun ko'pkari sirlarini o'rganishda tajriba maktabi vazifasini o'taydi. "Qoqma" nihoyasiga yetgach, otlar sovutiladi. Endi haqiqiy ko'pkariga gal keladi. Unda har qanday chavandoz ham qatnasha olmaydi. Chunki, ko'pkarining o'ziga yarasha yozilmagan, hamma uchun barobar bo'lgan qonunlari bor. Musobaqa

boshlanishidan oldin bakovulboshi hammaga qarata; “g‘irromlik qilmaysan, tag‘in egarga bog‘lab yoki o‘g‘rincha qayish o‘tkazib uloqni qo‘lga kiritaman deb o‘tirma! Halol tashlasang, zotini ayamayman! Zotiga ellik ming so‘m pul va bitta qo‘chqor qo‘yildi” deb e‘lon qiladi. So‘ngra uloq olib kelinib, otlarga hidlatiladi. Uloqning havosi bor, otlarga shu havo madad beradi, bunday vaqtlarda otlar faqat g‘alabaga intiladi, deyishadi. Chavandozlar to‘dasidan uloqni olib chiqib ketish har kimga ham nasib etavermaydi. Tolotumda ot ustidan egilib, uloqni shahd bilan bir hamlada ko‘tarib olish, boshqalar har qancha chiranib tortganda ham ularga bermay otga o‘ng‘arish, ustalik bilan uzangiga bekitib, taqimiga bosgan holda davradan ajratib olish uchun chavandoz butun borlig‘i bilan harakat qiladiki, bu uzoq yillik tajriba, mahorat va hunardan darak beradi. G‘alabaga ishtiyoqi baland bo‘lgan mohir chavandozlar og‘ir vaziyatlarda ham chayirlik qilib, chidam va shahd bilan o‘zining xilma-xil usullarini, hunar va ilmlarini qo‘llaydilar. O‘yin so‘nggida bakovulboshi rahbarligidagi hakamlar g‘olib chavandozlarga sovrinlarni ulashadilar. Ko‘pkarida sovringa echki, novvos, ho‘kiz, tuya, ot, televizor, magnitofon, ayrim hollarda yengil avtomashina ham qo‘yiladi. Ba‘zi xonadonlar to‘ylarida esa kalish, maxsi, etik, gazlama, kigiz, gilam, polos va shunga o‘xshash mollar qo‘yiladi.

O‘zbekistonda ko‘pkarining “Uloq ayirish”, “Mehmon keldi”, “Qoralig‘” ko‘rinishlaridagi qoidalariga amal qilinadi. “Uloq ayirish” shartiga ko‘ra, chavandoz bakovul tomonidan o‘rtaga tashlangan uloqni to‘dadan olib chiqib, oldindan belgilangan manzilga etkazib bersa, halol hisoblanadi va unga e‘lon qilingan sovrinlar tantanali suratda topshiriladi. “Mehmon keldi” shartida sovrin uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar, to‘y egasining qarindoshlari va qadrdonlari tomonidan qo‘yiladi. Bosh hakam uloqni davraga tashlaydi va otiga minib, chavandozlardan taxminan to‘rt, besh yuz qadam narida qo‘liga bayroq ushlab turadi. Qaysi chavandoz uloqni bayroqchagacha keltirib bersa, hakamlar boshlig‘i “halol” deya bayroqchasini yuqoriga ko‘taradi. Ko‘pkarining so‘nggida o‘tkaziladigan “Qoralig‘” sharti bo‘yicha chavandoz uloqni naqd bayroq ushlab turgan bakovul otining oldingi oyog‘i tagiga olib kelib tashlashi kerak. Bu chavandozlardan juda katta kuch, mahorat va tajriba talab qiladi.

Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi tumanlari atroflarida XX asrning o‘rtalarida Olovxon polvon, Egamberdi shoxa, Surxondaryoda To‘ra qora, uzun O‘lan kabilar, Qo‘ziboy chavandoz, Mavlon, Ro‘ziqul, Alpon polvon, Otaqul, Ilyos kabilar shuhrat qozongan, katta obro‘ga ega bo‘lishgan. Keyinchalik, Xushvaqt, Jalol, Shuqur, Asad, Xurram, Omon dev ismli chavandozlar maydonga chiqishdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentning 17.06.2021 yildagi PQ-5149-son qarori
2. Prezidentning 11.04.2022 yildagi «Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-201-son qarori
3. Tursunov S. N. Surxondaryo – etnografik makon. – Toshkent: Akademiya nashri, 2012. – 232 b.
4. Tursunov. N. N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – 160 b.
5. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных рай-онов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – 323 с
6. Jabborov I. M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 312 b.
7. Jabborov I. M. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati (etnotarixiy lavhalar). – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 208 b.
8. Jabborov E. O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi (Janubiy O‘zbekiston materiallari asosida). Filol. fan. nomz. diss.... avtoref. – Tashkent, 1998. – 26 b.
9. “БОЙСУН – БАҲОРИ” ХАЛҚАРО ФЕСТИВАЛИ: ТУРИЗМСАЛОҲИЁТИ
10. Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти халқаро илмий-амалий анжумани. ТОШКЕНТ «YOSH AVLOD MATBAA» 2022